



UDK 903.31 (575.3)

Muhammadjon ISOMIDDINOV,

Tarix fanlari doktori (DSc), professor,

Farg'ona davlat universiteti Farg'ona, O'zbekiston.

E-mail: m.isomiddinov@pf.fdu.uz, ORCID ID: 0000-0003-0090-4424

Sarvar KARIMOV,

Tayanch doktorant,

Farg'ona davlat universiteti Farg'ona, O'zbekiston.

E-mail: karimov.sarvar.fayzullayevich@gmail.com, ORCID ID: 0009-0004-8980-8600

FarDU professori, t.f.d M.Hasanov taqrizi asosida

QUVASOY HUDUDIDA PALEOLIT DAVRIGA OID MANZILGOHLARNI O'RGANISH

Annotatsiya

Maqolada Janubiy Farg'onaning Qal'acha-1 - Qal'acha-5 manzilgohlarini paleolitshunos M.R.Qosimov tomonidan o'rganilgan, lekin uning atrofidagi Qaramqul manzilgohi, Qapchig'ay ustaxonasi va Qapchig'ay g'orining madaniy qatlamlari hamda Qal'acha manzilgohlarida xronologik va tarixiy madaniy farqlari bo'yicha muhim bo'lgan dalillar qiyosiy taqqoslash usuli bilan o'rganilmagan.

Kalit so'zlar: Quvasoy, Qal'acha, paleolit, mustye, yuqori paleolit, levallua, plastinasimon, nukleus, tosh qurollar, disksimon, uchburchaksimon, retush.

ИЗУЧЕНИЕ СТОЯНОК ЭПОХИ ПАЛЕОЛИТА НА ТЕРРИТОРИИ КУВАСАЯ.

Аннотация

В статье рассматриваются стоянки Кальча-1 - Кальча-5 Южной Ферганы, которые были изучены палеолитоведом М.Р.Касымов. Однако культурные слои расположенных поблизости памятников - палеолитическая стоянка Каракуль, мастерская Капчигай и пещера Капчигай, а также их хронологические и историко-культурные различия со стоянками Кальча ранее не были изучены с применением сравнительно-сопоставительного метода. В данной работе предпринимается попытка восполнить этот пробел посредством сравнительного анализа археологических материалов указанных памятников.

Ключевые слова: Куvasай, Кальча, палеолит, мустье, верхний палеолит, леваллуа, пластинчатые орудия, нуклеус, каменные орудия, дисковидные, треугольные, ретушь.

STUDY OF PALEOLITHIC SITES IN THE TERRITORY OF KUVASAY

Annotation

The article examines the Kalacha-1 - Kalacha-5 sites of Southern Fergana, which were previously studied by the Paleolithic researcher Mansur Raximovich Qosimov. However, the cultural layers of nearby archaeological sites - Qaramqul site, Kapchigay workshop and Kapchigay cave - as well as their chronological and historical-cultural differences from the Kalacha sites have not previously been studied using a comparative approach. This study attempts to address this issue through a comparative analysis of the archaeological materials from these sites.

Keywords: Kuvasay, Kalacha, Paleolithic, Mousterian, Upper Paleolithic, Levallois, blade-like tools, nucleus (core), stone tools, discoid, triangular, retouch.

Kirish. Markaziy Osiyoda, ayniqsa Farg'ona vodiysi hududi insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlarini tadqiq etishda muhim arxeologik makonlardan biri hisoblanadi. Tabiiy-geografik muhitning xilma-xilligi, adir va tog' etaklari, shuningdek mineral xom ashyo manbalarining mavjudligi bu hududda qadimgi inson guruhlarining yashashi va mehnat faoliyatini uchun qulay sharoit yaratgan. Shu bois mintaqadagi paleolit davri yodgorliklarini o'rganish ushbu maskanda insonning ilk madaniy rivojlanish bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Farg'ona vodiysida paleolit yodgorliklarini izlash va ilmiy tadqiq qilish ishlari faollashdi. Bu tadqiqotlar davomida vodiyning tog'oldi va adir hududlarida ko'plab arxeologik obyektlar aniqlandi. Jumladan, Quvasoy atrofida joylashgan Qal'acha manzilgohlari (Qal'acha-1 - Qal'acha-5) o'rta paleolit davri madaniy komplekslarini o'rganishda muhim manba sifatida qayd etildi. Ushbu yodgorliklardan topilgan nukleuslar, plastinasimon

levallua va retushlangan tosh qurollari hududdagi tosh ustaxonasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini yoritish imkonini beradi.

Shu bilan birga Qal'acha manzilgohlari atrofida joylashgan Qaramqul va Qapchig'ay kabi yodgorliklar paleolit davri aholisining xom ashyo manbalari va ishlab chiqarish faoliyatini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Biroq mazkur yodgorliklarning arxeologik materiallari o'rtasidagi xronologik va madaniy o'xshashlik hamda farqlar hali yetarlicha qiyosiy tahlil qilinmagan. Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotning maqsadi Quvasoy hududidagi paleolit manzilgohlarini qiyosiy o'rganish orqali ularning madaniy va xronologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqot doirasida Quvasoy atrofida joylashgan arxeologik yodgorliklar kompleks ravishda tahlil qilindi. Ayniqsa Qal'acha manzilgohlari, Qaramqul manzilgohi, Qapchig'ay ustaxonasi va Qapchig'ay g'oridan olingan arxeologik materiallar asosiy tadqiqot obyekti

sifatida xizmat qildi. Manbalar sifatida ushbu yodgorliklar bo'yicha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari hamda M.R.Qosimov[1], A.P.Okladnikov[2] va boshqa[3] arxeologlarning ilmiy ishlari va ekspeditsiya materiallaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida arxeologik materiallarni kompleks tahlil qilishga qaratilgan bir qator ilmiy usullar qo'llanildi. Avvalo, yodgorliklardan topilgan tosh ustaxonasi namunalari morfologik va texnologik jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-taqqoslash usuli orqali turli manzilgohlardan aniqlangan arxeologik materiallar o'zaro solishtirildi. Tosh qurollarining shakli, ishlov berish texnikasi va funksional xususiyatlarini aniqlash maqsadida tipologik tahlil usulidan foydalanildi. Bundan tashqari, arxeologik materiallarning davriy mansubligini belgilashda xronologik taqqoslash usuli ham qo'llanildi.

Qo'llanilgan ushbu ilmiy usullar majmuasi orqali Quvasoy hududidagi paleolit manzilgohlarida aniqlangan tosh qurollarining turlari, ularning ishlab chiqarish texnologiyasi hamda madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini yaratildi.

Natija va muhokama. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin Markaziy Osiyo hududida, xususan Farg'ona vodiysida insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlarini o'rganishga qaratilgan arxeologik tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda mintaqaning paleolit davri yodgorliklarini izlash va ilmiy jihatdan tadqiq etish ishlari faollashib, arxeologik qidiruv ekspeditsiyalari tashkil etildi. Mazkur izlanishlarning kengayishiga yirik gidrotexnik loyihalar, jumladan Qayroqqum suv ombori qurilishi munosabati bilan amalga oshirilgan arxeologik tekshiruvlar ham muhim turtki bo'ldi.

Qayroqqum suv ombori hududida olib borilgan tadqiqot ishlarida arxeologlar A.P.Okladnikov va M.R.Qosimov, hamda o'lkashunos olim P.T.Konoplya faol ishtirok etdilar. Ularning izlanishlari natijasida mazkur hududda qadimgi tosh davriga oid tosh qurollari, shuningdek bronza davri metallurgiyasiga tegishli ustaxona izlari aniqlandi. Bu topilmalar ilgari tasodifiy yoki tabiiy tosh parchalari sifatida qaralgan ayrim predmetlar aslida arxeologik manzilgohlar mavjudligini ko'rsatuvchi muhim ilmiy dalillar ekanligini namoyon qildi. Shu tariqa, Qayroqqum havzasida topilgan arxeologik materiallar mintaqada qadimgi inson guruhlarining faoliyatini o'rganish uchun muhim manbaga aylandi[4].

Farg'ona vodiysida paleolit yodgorliklarini aniqlash va ilmiy muomalaga kiritishda mahalliy tadqiqotchilarning hissasi ham katta bo'ldi. Ayniqsa, Farg'ona o'lkashunoslik muzeyida faoliyat yuritgan P.T.Konoplyaning izlanishlari alohida e'tiborga molikdir. Arxeologik ta'lim olmaganiga qaramay, u arxeologlar bilan hamkorlikda ishlash jarayonida tosh davri qurollarining morfologik xususiyatlarini o'rganib, keyinchalik Farg'ona vodiysining turli hududlarida ko'plab paleolit yodgorliklarini aniqladi. Uning tadqiqotlari natijasida vodiydagi ko'plab tosh davri manzilgohlari ilmiy jihatdan qayd etildi [5]. Ilmiy muhitda hatto mashhur Selungur g'ori yodgorligining dastlabki aniqlanishi ham uning nomi bilan bog'lanishi haqida fikrlar mavjud. Shuningdek, Markaziy Farg'onadagi mezolit va neolit davriga oid qator manzilgohlarning ilk bor qayd etilishi ham uning izlanishlari bilan bog'liq.

Konoplya tomonidan aniqlangan arxeologik obyektlar orasida Oloy tog'lari etaklarida joylashgan Qapchig'ay ustaxonasi alohida ahamiyatga ega. U yerdan topilgan yirik tosh qurollaridan biri Moskvaga olib borilib, arxeolog A.P.Okladnikovga taqdim etilgan. Keyinchalik u Farg'ona vodiysiga tashrif buyurganida Konoplya bilan birgalikda mazkur ustaxona va unga yaqin joylashgan g'orni ko'zdan kechirgan. Natijada bu joy mustye davriga mansub yirik tosh

ishlov berish markazlaridan biri sifatida baholanib, paleolit arxeologiyasida muhim yodgorliklar qatoriga kiritildi [6].

1964-yil may-iyun oylarida O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasini Tarix va arxeologiya institutining Ya.G'.G'ulomov boshchiligidagi Farg'ona arxeologik ekspeditsiyasi ish boshladi. Ekspeditsiya tarkibida P.T.Konoplya, R.H.Suleymanov ham bor edi[7]. Paleolit davri bo'yicha ancha kuchli mutaxassis va M.R.Qosimov ekspeditsiyasining qatnashchisi R.H.Suleymanovning fikricha, Xo'jand shahridan Andijon viloyatining chegarasigacha bo'lgan adirli va tog'oldi hududlarining aksariyat qismlaridan turli xil o'rta paleolit davriga oid tosh qurollarini topilganliklarini R.H.Suleymanov yaqinda esladilar.

Ya.G'.G'ulomov boshchiligidagi Farg'ona ekspeditsiyasining bir otryadi Isfayramsoyning o'ng tarafidagi tarmog'i Quvasoy yoqalab joylashgan Qal'acha qishlog'i bilan adirlar o'rtasidagi paleolit davriga oid manzilgohlarni topdilar. M.R.Qosimov boshchiligidagi paleolit davrini o'rganish guruhi Quvasoy Isfayramsoyning bir irmog'i sifatida shimolga tomon adir bo'ylab yo'nalgan. Ularning balandligi 20-50 m. atrofida. Quvasoy adirlarining ustki qismlaridagi qatlamlarning yomg'ir, sel suvlari ta'sirida yemirilishi natijasida manzilgohlarning tosh qurollari yuvilib yumshoq galkadan yasalgan qurollar pastga, adirlarning etaklariga, Quvasoyning bo'yiga tushgan.

Quvasoy bo'ylab M.R.Qosimov boshchiligidagi otryadi a'zolarining xabar berishlaricha, Quvasoy yoqalab ketgan adirlarning balandligi 20 metrdan 50 metrgacha keladi. Quvasoy bo'ylaridagi adirlarning ustidagi qatlamlar, ya'ni manzilgohlarning yemirilib, yumshoq galkalardan yasalgan tosh qurollari pastga, soy bo'ylariga dumalab tushib, to'plangan [8].

Manzilgohlar M.R.Qosimov tomonidan Qal'acha-1 – Qal'acha-5 manzilgohlari ochildi:

Qal'acha-1 manzilgohini qayerda ekanligini M.R.Qosimov tushuntirar ekan, Farg'ona shahridan Tolmozor yo'li bo'ylab joylashgan va 250 metr masofani egallaganligi ta'kilangan.

M.R.Qosimovning manzilgohlarni joylashuvini tushuntirar ekan, Farg'ona-Tolmozor yo'lini (albatta Quva yo'lini ham) aynan Qal'acha 1 manzilgohi yaqinidan o'tganligini va bu tushuntirishidan eng qadimgi davrlardan uzoq masofalarga borgan yo'llar va albatta suvi bor va salqin hududlardan o'tganligini alohida ta'kidlagan bo'lar edik.

Qal'acha-2 manzilgohi Quvasoyning bo'yida, hamda 200 m. Qal'acha-1 manzilgohidan shimolroqqa adirlarning ustida joylashgan.

Adir ustidagi galechniklar yer betigacha chiqib turganligini, bu yerdan topilgan tosh buyularining umumiy soni 19 ta bo'lib, ularning asosiy qismi plastinasimon levallua va o'tkir tig'ga ega bo'lgan predmetlardir.

Bu levallua tipidagi uchli tig'li tosh qurollarini xarakterli belgisi shundan iboratki, ularga ozgina retush beriganda ham tig'li, ham pichoqqa o'xshagan o'tkir yuzaga ega bo'ladi.

Qal'acha-3 manzilgohi Qal'acha-2 manzilgohidan shimolda, Quvasoyning adir atroflaridagi tepalardan 3-4 m. balandligini aytish kerak bo'ladi. Quvasoyning adirini ustki qismini yuvilishi natijasida, buzilgan joylar tekshirilganda, 28 ta topilmaning 14 tasi esa, ko'p hollarda uch burchak shaklidagi uchi uchli tosh qurollaridan iboratdir. Bu qurollarning xarakterli belgisi unchalik to'g'ri bo'lmagan qirralariga retush berilganligi aniqdir. Shunday qurollarning biriga ikki tomonlama ishlov berilgan. Bu kompleksda uchli plastinasimon qurollarni qirg'oqlarini juda yaxshi, silliq retushlangan qurollardan iboratdir. (Rasmlar M.R.Qosimov maqolasida berilgan).

Qal'acha-4. Bu yodgorlik qolgan manzilgohlarning eng shimoldagisi hisoblanadi va Qal'acha-3 yodgorligidan 100 m shimolda. Quvasoy bu yerda ancha katta, hamda kalta, jarlik bilan to'qnash kelgan joydadir. Qal'acha-4 manzilgohini topilmalari boshqa manzilgohlardan farq qilib, o'zining disksimon nukleuslarning yaxshi va ko'p saqlanganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga ko'plab levallua tipidagi uchli plastinalar va uning siniqlari topilgan. Topilgan qurollarning jami 50 tadan oshiq.

Qal'acha-5. Bu punkt Quvasoyning chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, Quvasoy-4 va Quvasoy-5 ning ro'parasidadir. Bu soyning qirg'og'i bo'ylab, 2-3 km masofada galechniklarning ustida mustye davri tosh qirg'oqlari aniqlangan. Jami 22 ta. Ularning ichida uch dona to'liq ishlatib bo'lingan nukleus bo'lib, yana 2 ta, juda katta uch burchak shaklidagi tosh qurollari 2 dona bo'lib, ularning zarb berish nuqtalari nukleusning yuqori tomonlarda joylashgan.

Qal'acha manzilgohlaridan tashqari Qaramqul qishlog'ini ham P.T.Konoplya 1959-yilda o'rgangan o'rganilgan bo'lib, mustye davri tosh qurolini topgan. Bir dona o'tkir tig'li tosh quroli ham (ostrokonechnik) topilgan.

M.R.Qosimov Oloy tog'larining shimoliy etaklarida juda ko'plab (423 dona) nukleusni (tosh o'zakni) topganligini aytgan. Bu nukleuslar turlicha shaklda bo'lib, ular disksimon, uchburchaksimon, levallua va boshqa shakldagi tosh qurollaridan iboratdir.

Oloydagi Qapchig'ay ustaxonasidan yana 76 ta yuqori paleolit davriga oid nukleuslar, plastinalar, uchrindilar va

boshqa qurollar topildi. Bundan Qapchig'ay ustaxonasini nafaqat mustye davriga oid ustaxona, balki yuqori paleolit davrida ham bu ustaxonadan unumli foydalanilgani bo'yicha ham kerakli ma'lumotlarni olishga muvaffaq bo'ldik.

Qapchig'ay ustaxonasining qimmatli tomoni shundan iboratki, bu yerdan qora rangli kremniy borligi sababli bu mineralning qiymati juda yuqori turar edi.

M.R.Qosimov Xalqinmayn (Xalqi mayin bo'lsa kerak) Dangi darasida Qapchig'ay-1 g'orini topdi va uni Xalqinmayn soyidan 25-30 m. yuqori qismida joylashgan. Bu g'or koridorsimon shaklga ega bo'lib, og'iz qismi bilan janub tomonga qaragan. G'ordan mustye davriga oid bitta qirg'ich parchasi topildi[9].

Xulosa. Shunday qilib, M.R.Qosimov Qal'acha, Qaramqul hamda Qapchig'ayning mustye yodgorliklarini So'x havzasidagi yodgorliklar bilan taqqoslar ekan, ularni orasidagi masofa anchagina bo'lsa ham, ularni bir-birlari bilan ham davriy, ham madaniy jihatdan yaqin ekanligini ko'rsatadigan belgi, bu madaniyatlar levallua tipidagi yodgorliklar bilan bir qatorda turishini aytadi. Shu bilan birga Qal'acha va Qaramqul yodgorliklarini ham shu madaniyatlar qatoriga kirishini biz alohida ta'kidlashimiz kerak bo'ladi.

Sariqo'rg'on yodgorliklarini mustye davridan ilgariroq davriga oid va shu bilan birga Qal'acha va Qaramqul yodgorligini yoshi yoshroq bo'lishi mumkin degan xulosaga kelamiz.

ADABIYOTLAR

1. Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долине в 1964 году. ИМКУ-7, Ташкент, 1966, С.28-32. // Касымов М.Р. Добыча и техника обработки кремня в каменоломнях-мастерских Средней Азии, Научные работы и сообщения, кн.3, Изд-во АН УзССР, Ташкент, 1961, С.259-261.
2. Окладников А.П. Превварительный отчет об исследовании памятников каменного и бронзового веков в Таджикистане летом 1954г. Труды инс-та истории, археологии и этнографии АН Таджикской ССР, т. XXVII, 1956, С.12-18; // Окладников А.П. Археологические работы в Таджикистане в 1956 г. Труды инс-та истории., т.XCI, вып.IV, 1959, С.7-21. // Окладников А.П., Леонов Н.И. Первые находки каменного века в Фергане. КСИА.вып.86.М.: Из-во АН СССР, 1961, с.36-72.
3. Конопля П.Т. Следы людей древнекаменного века в Южной Фергане, Ферганская правда, 23 марта 1958г. // Конопля П.Т. Следы людей каменного века на территории южной Киргизии. «Известия АН Киргизской ССР» т.1, вып. I. 1959. С.41-47 // Литвинский Б.А., Окладников А.П., Ранов В.Р. Древности Кайраккумов. Труды Института истории АН.Таджикской ССР. Душанбе. 1962.
4. Литвинский Б.А., Окладников А.П., Ранов В.Р. Древности Кайраккумов. Труды Института истории АН.Таджикской ССР. Душанбе. 1962.
5. Конопля П.Т. Следы людей каменного века на территории южной Киргизии. «Известия АН Киргизской ССР» вып. I. 1959. С.45-47.
6. Окладников А.П., Касымов М.Р., Конопля П.Т. Капчигайская палеолитическая мастерская. Сб. ИМКУ, вып.5, Ташкент, Из-во «Фан», 1964, с.5-11.
7. Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долине в 1964 году. ИМКУ-7, Ташкент, 1966, С.28-35.